

**Urganch davlat universiteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi o‘qituvchilari Botir Raximov, Rustam Boltaev, Doniyorbek Obidovlarning “Cholg‘u ijrochiligi tarixi” nomli uslubiy qo‘llanmasiga**

**TAQRIZ**

Musiqa haqida gap ketar ekan, avvalo inson ovozi so‘ngra esa cholg‘u sozi e’tiborimizni o‘ziga qaratadi. Chunki tarixdan inson ovozi eng mukammal cholg‘u sifatida gavdalanadi. Cholg‘u sozi esa unga dastak vazifasini bajargani aytildi.

Cholg‘u sozlarining tarixiy, nazariy hamda amaliy ijrolariga tegishli ko‘plab risola va ilmiy kitoblar yaratilgani to‘g‘risida eshitganmiz. Ularda olimu donishmandlar tomonidan qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ammo bu asarlarning arab va fors tillarida bitilganligi hamda hali bizga tanish tillarga o‘girilmaganligi bugungi kun musiqashunosligining muammoli holatlaridan sanaladi.

Ana shu kabi muammolarga yechim bo‘lishi kutilayogan mualliflarning “Cholg‘u ijrochiligi tarixi” uslubiy qo‘llanmasi mana shu xayrli ishning debochasi bo‘lib qolishiga tilakdoshman.

Qo‘llanmada cholg‘u sozları, ularning ijrochilari haqida bat afsil ma'lumotlar keltirilgan. Shularni inobatga olgan holda ushbu uslubiy qo‘llanmani “Ziyonet” axborot ta’lim tarmog‘iga joylashtirishga tavsiya etaman.

**Urganch ixtisoslashtirilgan san’at maktabi  
musiqiy-nazariy fanlar o‘qituvchisi  
ovoz rejissor assistenti va ammunitarili  
fanlar bo‘limi boshlig‘i**



**D.Rahimov**

**Урганч давлат университети “Мусиқа таълими” кафедраси  
ўқитувчилари Ботир Рахимов, Рустам Болтаев, Дониёрбек  
Обидовларнинг “Чолғу ижрочилиги тарихи” номли услубий  
қўлланмасига**

**ТАҚРИЗ**

Ўзбек халқининг чолғу ижрочилиги тарихи узоқ ўтмишга бориб тақалади. Чолғу созларининг эволюцион тарзда яъни босқичма-босқич ривожланиб бориши, шаклининг ўзгаришга юз тутиши, ижро имкониятларининг кенгая бориши каби омиллар бизга тарих саҳифаларининг турли кўринишдаги ёзма манбалари орқали етиб келган. Шу билан бирга XIX асрнинг охирлари ва XX асрда соҳа мутахассислари, созанда ва мусиқашунослари томонидан миллий чолғуларимизни замонавий амалиётга жорий этиш масалаларига оид қатор изланишлар олиб борилган.

Ботир Рахимов, Рустам Болтаев, Дониёрбек Обидовларнинг “Чолғу ижрочилиги тарихи” номли услубий қўлланмасида чолғу созининг пайдо бўлиши, шаклланиши ва ривожланиши, ижро жараёнларига янгича услубларнинг кириб келиши каби масала ва муаммолар таҳлил қилиб берилади. Бундан ташқари чолғу созларининг ўтмиш ҳамда бугунги кундаги устоз ижроиларининг ижодий фаолиятига ҳам назар ташлаб ўтилади.

Шулардан келиб чиқсан холда мазкур услубий қўлланмани “ZiyoNET” ахборот таълим тармоғига жойлаштиришга тавсия қиласман.



Узбек макомчи маркази  
директори

С.Ф.И., профессор С.М.Бегматов

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
O‘ZBEKISTON KOMPAZITORLARI VA  
BASTAKORLARI UYUSHMASI  
KOMILJON OTANIYOZOV NOMIDAGI  
“MUSIQA VA NAFIS SAN’ATLAR”  
JAMOAT FONDI**

**BOTIR RAXIMOV,  
RUSTAM BOLTAYEV,  
DONIYORBEK OBIDOV**

# **CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXI**

(Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun uslubiy qo‘llanma)

**“Quvanchbek-Mashxura” MCHJ nashriyoti  
Urganch – 2018 yil**

**UO'K 785(075)**

**85.315**

**R 29**

Cholg‘u ijrochiligi tarixi [Matn] : uslubiy qo`llanma / Botir Raximov,  
Rustam Boltayev, Doniyorbek Obidov. - Urganch :  
“Quvanchbek-Mashxura” MCHJ nashriyoti. 2018 y. 120 b.

**KBK 85.315**

“Cholg‘u ijrochiligi tarixi” uslubiy qo`llanmasi 2017-yili O`zbekiston  
Respublikasi oliv va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan  
5111000-musiqa ta`limi bakalavriat yo`nalishi talabalari uchun Cholg‘u  
ijrochiligi va ansambli fani dasturi asosida tayyorlandi.

Mas’ul muharrir:  
**Komiljon Abdirimov,**  
Urganch davlat universiteti  
Musiqa ta`limi kafedrasи o`qituvchisi.

Taqrizchilar:  
**Samandar Hudayberganov,**  
Urganch davlat universiteti  
Musiqa ta`limi kafedrasи professori.

**Adilbek Kazakov,**  
Urganch davlat universiteti  
Musiqa ta`limi kafedrasи katta o`qituvchisi.

ISBN 978-9943-5314-8-2

© Botir Raximov, Rustam Boltayev, Doniyorbek Obidov. “Cholg‘u  
ijrochiligi tarixi”.  
© “Quvanchbek-Mashxura” MCHJ nashriyoti. 2018 y.

## KIRISH

Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg‘ularimiz va ularda ijro etilayotgan musiqiy ohanglarning ajoyib namunalari bugungi kunda ham o‘zining rang-barang jilosи, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam zavq-shavq va huzur baxsh etib kelmoqda.

Boshqa san’at turlari qatori cholg‘u ijrochilik san’ati insonga, ayniqsa yoshiarga ko‘tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir.

Milliy musiqiy qadriyatlarimizga mehr va muhabbat bolalikdan uyg‘onadi. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan musiqiy ta’lim masalasiga ayniqsa, uming boshlang‘ich bosqichiga jiddiy e’tibor qaratilishiga alohida urg‘u berilgan. Musiqa san’atimi rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bolalar musiqa va san’at maktablari, kollej-litseylar, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv-tarbiyaviy ishlarni zamon talablari darajasida tashkil etilgan.

Ta’lim bosqichlarida yigit va qizlarimiz qanday kasb tanlashlaridan qat’iy nazar ijrochilikmi, dirijormi, bastakormi, musiqashunoslikmi ta’lim poydevori milliylik bo‘lmog‘i darkor. Milliylikdan chiqib, umuminsomy qadriyatlar darajasiga erishgan sozanda har doim aziz va mo‘tabar hamda hurmat va izzatda bo‘ladi. Milliylik poydevori esa milliy ohanglar, kuy va qo‘shiqlar, shuningdek asrlar osha kelayotgan cholg‘u sozlarimizning sadolaridan quriladi.

Masalan, ming yillik tarixga ega bo‘lgan tanbur, dutor, g‘ijjak, nay va boshqa cholg‘ularimiz O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan simfonik orkestr, ko‘plab estrada jamoalarida milliylik ramzi va ayni chog‘da eng zamonaviy sadolar taratayotgan mo‘tabar cholg‘ular sifatida maydonga chiqmoqda. Abduhoshim Ismailov qo‘lidagi g‘ijjak, Abdulahad Abdurashidov nafasidan sado taratayotgan nay, Abdurahmon Xoltojiyev

san'atidan bahra topayotgan qonun zamonaviy shaklda namoyon bo'lib, katta sahnalarni to'ldirib, muxlislarga zavq hamda milliy g'urur baxsh etib kelmoqda.

Ma'lumki musiqa bu cheksiz imkomiyatlarga ega bo'lgan sirli olam. Shu bilan birga musiqaga jon ato etuvchi mo'jiza esa cholg'uchi – bunda cholg'uchining ijro quroli cholg'u sozidir.

Cholg'u sozlarning tarixiy, nazariy hamda amaliy ijrolariga tegishli ko'plab risola va ilmiy kitoblar yaratilgan. Ularda olimu donishmandlar tomonidan qimmatli fikrlar bayon etilgan. Ammo ayrim sabablarga ko'ra bugun biz ularning ko'pchiligidan bexabar qolganmiz. Bu asarlar arab va fors tillarida bitilganligi hamda hali bizga tanish tillarga o'girilmaganligi sababli, bu ma'lumotlar faqat chegaralangan doiradagi mutaxassislar tomonidan qo'llamilmoqda.

XIX asrning oxirlari va XX asrda soha mutaxassislari, sozanda va musiqashunoslari tomonidan milliy cholg'ularimizni zamonaviy amaliyatga joriy etish masalalariga oid qator izlamishlar olib borilgan.

XX asrning 20-yillariga kelib musiqa va san'at sohasini zamonaviy talablar asosida cholg'u ijrochiligi ikki yo'nalish - xalq an'anaviy ijrochiligi san'ati va akademik ijro san'atiga bo'lindi. Aym chog'da milliy cholg'ularni yevropacha yo'nalishdagi ko'p ovozlik musiqa uslubi o'quv dargohiari va konsert muassasalarida joriy etila boshlandi.

1927-yili O'zbekiston radio eshittirishlari tashkil qilindi. Respublika Radiosi qoshida turli ijodiy jamoalar – maqom ansambl, estrada ansambl, milliy cholg'ular ansambl, kamer orkestri, kvartet va boshqa guruqlar tuzilib, mustaqil faoliyat olib bora boshladi. Milliy cholg'ular ansambliga Yunus Rajabiy rahbarlik qildi. Bu haqda taniqli olim va ustozoda T.Zufarov o'zining "Soz va sozgarlik tarixi" risolasida quyidagicha bayon etganlar. "Yunus Rajabiy zo'r tashabbus ko'rsatib, qisqa bir muddatda buyuk sozanda va xonandalardan iborat milliy ansambl tuzdi. Ammo ansambl ixtiyoridagi sozlar o'sha vaqtdagi bevosita efirga uzatiladigan radio talablariga yetarli darajada javob bera olmas edi. Shu bois Yunus Rajabiy ansambl uchun yangi, balandroq

ovozli sozlar yasatishni rejalashtirdi. Yunus Rajabiy bu masala bo‘yicha Usta Usmonga murojaat qildi. Usta Usmon jadal ishga kirishib, ansambl a’zolari uchun an’anaviy milliy sozlar bilan bir qatorda sozgarlik bo‘yicha butunlay yangillk bo‘lgan katta hajmli sozlar ham yasadi. Bu sozlarning ovoz imkoniyatlari borasida Yunus Rajabiy bilan bamaslahat ish yuritdi”.

Keyinchalik, Yunus Rajabiy bu voqeani eslab, o‘sanda Usta Usmon ansambi uchun “10 xil asbob yangidan yasagan edi” – deb yozgan edi. Bular orasida “katta (bas) g‘ijjak”, “o‘rta (alt) g‘ijjak”, “katta (bas) dutor”, “katta (bas) tanbur” bor edi. Yunus Rajabiy bu sozlarning aynan mana shu xususiyatlarini hisobga olib, ansambl tarkibiga kiritgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ansambl o‘z oldiga ming yillik tarixiy yo‘lni bosib kelayotgan o‘zbek milliy musiqa madaniyatidan alohida ajralishni emas, balki bevosita o‘sha madamiyatni davom ettirishni bosh maqsad qilib qo‘ygan edi. Bundan tashqari, o‘sha vaqtida Yunus Rajabiy Usta Usmon yaratgan “katta” cholg‘ularmi zinhor Ovro‘po musiqa madaniyatiga mansub orkestr tuzish niyati bilan emas, balki bir xil sado beruvchi “umison” ansambining ovoz imkoniyatlarini kengaytirish, yana ham to‘g‘rirog‘i, ansambl ovozini kuchaytirish maqsadida ansambl cholg‘ulari safiga qo‘shgan edi. Xuddi shu maqsadda yana ansambl tarkibiga baland ovozli qo‘shnay va bulomon kabi cholg‘ular ham kiritilgan edi. Shuning uchun ham Yunus Rajabiy o‘z xotirasida “ansamblni orkestrga moslashtirdik” deb emas, balki “ansamblni mukammallashtirdik”, ya’ni “to‘ldirdik”, yana ham to‘g‘rirog‘i, “ansamblga qo‘shimcha ovozlar qo‘shdik” – deb yozadi. (Bu xotira Yunus Rajabiy uy-muzeyida saqlanmoqda<sup>1</sup>).

Sozgar ustalar tomonidan 1930-yillarning boshlarida musiqa asboblaridan dutor, tanbur, rubob va g‘ijjaklarning turdosh oilasini yaratdi. Chang, g‘ijjak kabi cholg‘ularga qo‘shimcha torlar qo‘shilib ularning ohang doirasini anchagina kengaytirdi. Kichik diapazon va diatonik tovush qatorga ega bo‘lgan changning ham yuqori registrlariga

<sup>1</sup> T. Zufarov. Soz va sozgarlik tarixi. Toshkent, 2014. 83-84 betlar.

qo'shimcha torlar va xarraklar qo'yilishi hisobiga kengaytirdi. Natijada shaklan milliy bo'lgan yangi toifadagi temperatsiya qilingan cholg'u asboblar paydo bo'ldi.

O'sha vaqtida musiqiy amaliyotda "ko'p ovozli" degan tushuncha paydo bo'ldi. Cholg'u asboblarimizda ijro etiladigan mumtoz kuylarimiz nohaq ravishda iste'moldan chiqarilib uni o'rmiga xom-xatala kompozitorlik na'munalarini kiritishga urinilgan.

Biz bugun M.Burxonov, M.Leviyev, T.Jalilov, D.Zokirov, Y.Rajabiy, F.Sodiqov, K.Otaniyozov, A.Otajonov va M.Mirzayev kabi atoqli kompozitor va bastakorlarimiz tomonidan yaratilgan nodir ijod na'munalarini qadrlashimiz kerak, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 27-28-fevral kunlari Xorazmda san'at ahli bilan bo'lgan uchrashuvda "Musiqa va san'at maktablarida o'zbek musiqasining ilmiy-nazariy asoslari umumiy ijro maktablari har xil bo'lmos'h'i kerak" degan g'oyam taklif qilgan edi.

Yurtboshimiz ilgari surgan bu g'oyadan shuni anglash mumkinki, musiqa san'ati bo'yicha ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi ustoz-o'qituvchilar yosh iste'dodlarda ijro mahoratlarini o'stirishda har bir hududga xos bo'lgan ustoz shogird an'analariga jiddiy e'tibor berishlari talab etiladi.

Zero, "maktab" mushtarak (ajralmas) milliy an'analar, ya'mi – o'zbek musiqasi tarkibidagi turli ijodiy yo'nalishlarni nazarda tutadi. XX asr boshlarida milliy ma'rifatchilar va peshqadam rus ziyorilari "Konservatoriya" tushunchasini aynan shu maktab ma'nosida ishlatganlar.

Turkiston xalq universiteti (hozirgi milliy universitet) tarkibida Turkiston xalq konservatoriysi 1918-yildan e'tiboran o'z faoliyatini boshlagan. Mazkur xalq konservatoriyasining asosiy vazifasi xalqqa musiqadan boshlang'ich ma'lumot berish, birorta cholg'u-sozda chalishni o'rgatish va xonandalik mutaxassisligidan saboq berishdan

iborat edi. O‘qish muddati va dasturi aniq belgilanmaganligi uchun har bir ustoz-pedagog o‘quvchi-talabani qobiliyati va imkoniyatini nazarga olgan holda dars bergan.

Konservatoriysi nomlamishidagi xalq iborasi bugun biz ochiq-oydin aytadigan “Millat” tushunchasi nazarda tutilgan. Konservatoriyaning tashkil qilinishi mohiyatiga kengroq nazar soladigan bo‘lsak ma’rifatparvar ziyyolilar uzoqlarni ko‘zlab, milliy va umum insoniy qadriyatlar bir butun jarayon ekanligini chuqur idroq etganliklarining guvohi bo‘lamiz.

Turkiston xalq konservatoriysi aslida ikki muxtor konservatoriyanidan iborat bo‘lgan. Ularning biri Chorsuda Turon kutubxonasi yonidagi hovlida joylashgan bo‘lib “Eski shahar” konservatoriysi deb yuritilgan.

Ana shu konservatoriyaning yetakchi professori o‘z davrining mashhur kompozitor va olimi V.A.Uspenskiy bo‘lgan. Konservatoriya o‘qituvchi sifatida mashhur hofiz Shorahim Shoumarov tayinlandi. O‘qish ikki yo‘nalishda joriy etilgan bo‘lib o‘zbek musiqasini og‘zaki o‘zlashtirish va nota uslubi hamda ko‘p ovozli musiqa nazariyotini o‘rganishdan iborat edi. Birinchi talabalari qatorida esa Yunus Rajabiy va Imomjon Ikromovlar ta’lim olganlar.

Bugun, oradan ko‘p yillar o‘tgandan keyin ham V.A.Uspenskiy, Y.Rajabiy va I.Ikromovlarning kim ekanligini hamda ularning ijodi va faoliyatining tarixiy ahamiyatining ortiqcha izohlab o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Turkiston xalq konservatoriyasining ikkinchi qanoti hozirgi temir yo‘l vokzaliga yaqin joylashgan bo‘lib “Vokzal yoni” (“Pri vokzalnaya”) deb nomlangan. U yerda Ovro‘pa dasturidagi cholg‘u sozlar va vokal ijrosi ustuvor o‘rin egallagan. Aynan shu o‘quv dargohiga keyinchalik, Musiqa texnikumi, Toshkent oliy musiqa maktabi (1934 yildan) va Toshkent davlat konservatoriysi (1936-yildan), 2002-yilda “O‘zbekiston davlat konservatoriysi” maqomi berildi.

Milliy qanot shaklidagi oliy o‘quv yurti 1921-yilda Buxoroda ham tashkil qilingan va u “Sharq musiqa maktabi” degan nom olgan. Maktabda ishlash uchun Ota Jalol, Ota G‘iyos, Levicha, Domla Halim Ibodov, Shohnazar Sohibov, Boboqul Fayzullayev, Ma‘rufjon Toshpo‘latov kabi mashhur hofizu maqomshunoslar jalg‘ etilgan. Shu maktabda ta’lim olgan M.Burxonov, M.Ashrafiy kabi talabalar keyinchalik, o‘zbek musiqasining poydevorini qo‘ygan kompozitor va dirijorlar bo‘lib yetishgan.

1928-yili Samarqandda musiqa va xoreografiya instituti o‘z faoliyatini boshlagan. Institut o‘z oldiga xalq ijodiyotini tadqiq etish, milliy ashula va raqs san’atlarini o‘rgatish, musiqa tarixiga oid ma‘lumotlarmi to‘plash hamda nota namunalarini yaratishdek ma’rifiy vazifalarni maqsad qilib qo‘ygan.

Demak, gap oliy o‘quv dargohlarimi qanday nomlamishi, konservatoriya yoki maktab deyilishida emas, balki ularning ichki ma’no mazmunida degan xulosaga kelish mumkin.

Bugungi kunda Prezidentimizning yuqorida qayd etilgan “Musiqa va san’at maktablarida o‘zbek musiqasining ilmiy-nazariy asoslari umumiyligi ijro maktablari har xil bo‘lmog‘i kerak” degan g‘oyalari ana shu ustuvor fikrga hamohang keladi deyish mumkin.

Qiziqarli tomoni shundaki o‘quv yurtlari qanday deyilishidan qat’iy nazar ular yagona tartib, ya’mi cholg‘u sozlarimi ustuvor tutishdan boshlanadi.

Zero cholg‘u sozlar hamisha umrboqiy meros va jonli urf-odatlar o‘rtasidagi moddiy, hayotiy ko‘prik vositasini bajarib kelgan. Shuning uchun ham bugungi musiqiy ta’lim islohatini ana shu cholg‘u sozlar ko‘prigini ta’mirlashdan boshlamog‘imiz maqsadga muvofikdir.

Bir so‘z bilan aytganda bugungi o‘g‘il-qizlarimiz qo‘liga cholg‘u sozi olib “milliy yo ovro‘paviyimi”, qalbiga milliy ohanglarni mumtoz maqomlarning pardasi va usullarini joylashdan boshlamog‘i lozim.

Bu yo‘lda eng muhimi, bir yo‘ldan ikkinchisiga tashlanish, biri bilan boshqasini inkor etish yoki birini ikkinchisidan ustun qo‘yish emas. Aksincha, milliy va umuminsomy qadriyatlarni teng tutgan holda zamon talablariga mos san’atkor bo‘lib yetishadigan yoshlarmi tarbiyalash.

Ana shu g‘oyaga e’tiboran milliy cholg‘ularimizning bugungi holati va bu yo‘ldagi dolzarb masalalarni yoritishga qaratilgan ushbu o‘quv uslubiy qo‘llanmamiz yoshlar orasida milliy cholg‘ularga bo‘lgan mehr va ixlos tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Uslubiy qo‘llanmani uch bo‘limga ajratdik. Ularga yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va ko‘p ovozlik deb sarlavha qo‘ydik. Bu albatta shartli tasmifot-klassifikatsiya. Chunki yakkanavozlik deganda biz faqat cholg‘u ijrochilagini emas, balki xonandalikni ham nazarda tutdik. Xuddi shunday jo‘rnavozlik deganda ham faqat cholg‘u ijrochilagini emas, balki, ovozga cholg‘u jo‘rligini ham izohlab o‘tdik.

Yana bir muhim istilohiy masala. Bizda jo‘rnavozlik deganda yakka ovoz va cholg‘ularni qo‘shilishini nazarda tutish odatga kirgan. Biz esa masalaga kengroq yondashib turli sozlarning uyg‘unlashuvidan iborat ansambl ijrochiliklarini ham jo‘rnavozlik toifasida ko‘rishni ma‘qul topdik.

Masalan, T.Alimatovning yakka o‘zi D.Zokirovning “Ey sabosini” dutor, tanbur va sato cholg‘ularida ijro etgan namunasini jo‘rnavozlik turiga kiritdik. To‘g‘ri, bu jo‘rnavozlikning zamonaviy ko‘rinishi, yangi texnik vositalar yordamida uyg‘unlashtirilgan shakli (nalojemie- qatma qat, ustma-ust qo‘yish). Yoki bo‘lmasa so‘nggi davrlarda Salohiddin To‘xtasinov yoki Fahriddin Sodiqovlar rahbarligida joriy etilgan yirik o‘nta va undan ham ziyod cholg‘ulardan iborat guruhlarni ham shu qatorga qo‘shdik. Bu ijrolarda hattoki ko‘povozlik mafkurasining ta’siri ham sezilib turadi.

Shunday qilib yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va ko‘povozlik toifalar shartli bo‘linmalar ekanligi ayon bo‘ladi.

Va nihoyat cholg‘u sozlari va ularning ijro vositalarining mundarijasini tuzishda ko‘povozlik orkestr partiturasida rasm etilgan tartibga ko‘ra oldin damli sozlar, torli urma, torli mizroqli, urma zarbli, torli kamonli cholg‘ular tasnifoti asos qilib olindi.

Ana shu tartibda oldin har bir cholg‘uning tuzillshi ijro yo‘l-yo‘riqlari ijodiy imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Keyin shu cholg‘ularda ulug‘ ustozlar ijro etgan ijod namunalarining nota matnlari beriladi. Uslubiy qo‘llanma yakunida ilova sifatida mazkur matnlarning badiiy ijrolari keltiriladi.

Shunday qilib, mazkur yo‘l bilan maktab o‘quvchilari, talaba-yoshlar hamda keng doiradagi musiqa muxlislariga milliy cholg‘ularimizning tarixi, ilmiy asoslari va badiiy imkoniyatlari haqida ma’lumotlar taqdim etiladi. Qo‘llamada berilgan tarixiy va nazariy ma’lumotlar yosh sozanda va cholg‘ushunoslarni milliy musiqiy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tiqodini yanada oshiradi, degan umiddamiz.

## O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARI VA CHOLG‘UCHILIK TARIXI

Cholg‘u ijrochiligi asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Har bir millatning musiqa ijrochiligidagi o‘ziga xos milliy musiqiy sadolamish qoidalari, milliy musiqiy ijro tuzilmalari, ijrochilik maktablari mavjud. Milliy musiqa cholg‘ulari ijrolari va sadolamishlari bilan bir – biridan farq qiladi. Cholg‘u asboblarining sadolamishi, ularda ijro etilgan musiqiy asarlarning ijrosi va ohangi qaysi millatga mansubligidan darak beradi. Bu o‘ziga xoslikni amalga oshiruvchi sozanda.

“Soz”<sup>2</sup> anda – quruvchi, yaratuvchi, cholg‘uchi<sup>3</sup>. Milliy musiqa cholg‘ularidan birida mashq qiluvchi musiqachi; mashshoq, navozanda degan ma’nolarmi anglatadi.

<sup>2</sup> Soz – musiqa cholg‘ularining (mas, dutor, tanbur, g‘ijjak) umumiy nomi.

<sup>3</sup> Cholg‘uvchi – cholg‘u chaluvchi sozanda, musiqachi.

Sozandalik – musiqa ijrochiligi san’atining qadimiy turlaridan biri bo‘lib, insoniyat hayoti, ma’naviyati, ruhiyati va rivojiga beqiyos madad beruvchi omildir. Sozandalik sohasida shu boisdan ham uzoq o‘tmishdan o‘ziga xos an’analar vujudga kelgan. Bu an’analar xalq orasida ardoqlanib, turli ko‘rinish, uslub va yo‘nalishlarda rivojlanib, avloddan avlodga o‘tib, o‘z ma’naviy salohiyatini saqlab kelmoqda.

San’atning boshqa turlari ichida musiqiy janrlar eng murakkab, ammo inson qalbiga tez yetib bora oladigan xususiyati sozanda tomonidan mohirlik bilan cholg‘u sozida ijro etilgan kuy hisoblanadi. Sozanda ijro etayotgan har bir kuy, ohang o‘zining ma’lum bir mazmun mohiyatiga ega bo‘lib, u tinglovchiga tovush orqali ta’sir etadi va badily obraz yaratadi. Kuyning yana bir o‘ziga xos xususiyati shundaki, so‘z beoqibat qolganda ham kuy yordamida ko‘ngilmeng hilvatli joylarini ham zabit etish imkoniyatiga egadir.

Cholg‘u asbobi bu o‘ziga xos uskuna. Cholg‘uchi unga jon beruvchi, uni ijro etuvchi shaxs. Cholg‘uchi tor ma’no, ijrochi esa keng ma’nodagi tushuncha. Cholg‘uchi bir joyda turib ijro qilaveradi. Ammo, ijrochi birovning g‘oyasini, masalan, “Munojot”, “Aliqambar”ni ijro qilib beradi. Sozanda cholg‘u sozini chaluvchi, jonlantiruvchi shaxs. Ijrochi musiqiy g‘oya, uning ma’nosini, fikrini ado etish, ijro etnvchi, yuzaga chiqaruvchi, eshittiruvchi. Sozandaning mahorati va ilhom tufayli ijro qilingan kuy jonli san’at voqeligiga aylanadi.

Sozgar usta biror bir cholg‘u sozi yasab, undan tovush chiqaradi. Soz –yasamoq, bu san’at olamida o‘zicha bir yaratuvchanlik. Sozanda esa o‘zgacha san’at bilan cholg‘u asbobi yordamida kuy yaratadi. Soz musiqada keng ma’noli tushuncha. Hazrat Navoiy sozmi quyidagicha ta’riflaydi:

*Bir ma’nosi sozni chalmoq ishi,*

*Bilmayin men kabini ishini kishi.*

O‘tmishdan ijrochilik san’ati cholg‘uchilikning ko‘p asrlik an’analarining ijodiy mahsuli hisoblangan. Bu cho‘qqini zabit etish sozandaning o‘z ijro sozi (inson ovozi yoki unga sun’iy o‘xshatma – *cholg‘u*)ga moslashuvidan boshlanadi. Cholg‘u ijrochiligining mohir ustalari bo‘lgan sozandalar va bastakorlar dildagi niyatlarini amalga oshishini xayolda gavdalantirib, fikrlash orqali tasavvur etiladigan musiqiy g‘oyalarni kuy yoki ashulalarga aylantirganlar. Cholg‘uchi sozanda o‘z kasbining siru-asrorlarimi o‘zlashtirishda ma’lum bir darajaga erishgandagina *Ustoz* degan nomga musharraf bo‘ladi.

Musiqa ilmida “soz” so‘zi ikki asosiy ma’noda ishlataladi. Cholg‘u sozi va yaratuvchi ijodkor ma’nolarida. Masalan, “Farhod va Shirin”dagi quyidagi baytda “soz” so‘zi cholg‘uchilikka tegishli:

*Mug‘anniylar ikki yondin navosoz,  
Tuzib rud lahni birla ovoz.*

Mug‘anmy – sozanda. Rud – cholg‘u sozi. Lahn – kuy. Demak, bunda “navosoz” deganda cholg‘uchilar va kuy ijodkorlari nazarda tutiladi.

Musiqa ijrochiligi masalalariga bag‘ishlab buyuk mutafakkirlar Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy, Darvishali Changiy va boshqalar o‘z asarlarida bir qancha ma’lumotlarni yozib qoldirganlar.

Musiqa ijrochiligi – ijodning bir turi, musiqa asarlarini xonanda yoki sozanda tomonidan badiiy talqinda ijro etilishi. Sozanda va xonandalar musiqa ijrochiligi an’analarini ustoz-shogird munosabatlari orqali avloddan-avlodga maxsus bilim va qoidalarga bo‘ysungan holda saqlab, rivoj toptirib, o‘rgatib kelganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmlidan boshlab Rossiya bilan Turkiston xalqlari o‘rtasida juda katta tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatlari yo‘lga qo‘yilib savdo-sotiq ishlari olib borilgan. O’sha davrda paydo bo‘lgan savdo mahsulotlari qatorida organun, skripka va

garmon kabi musiqa cholg‘ulari bo‘lgan. Bu cholg‘ularmi kirib kelishi qisqa davr ichida o‘zbek xalqi madamiyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi va ular xalq sozandalari orasida ommalasha boshladi.

Birinchi o‘zbek kino operatori Xudoybergan Devonov fotoarxivida xivalik va rossiyalik sozandalar jamoasi aks ettirilgan foto surat mavjud. Foto suratda jamoa tarkibida xalq cholg‘ulari bilan bir qatorda Ovro‘pa damli va zarbli cholg‘ularini ham ko‘rish mumkin.



**Xudoybergan Devonov foto – arxivida saqlanayotgan xivalik va rossiyalik sozandalar jamoasi surati.**

XX asrning boshlariga kelib cholg‘u ijrochilik san’atida bir qator musiqa ustozlari, jumladan To‘ychi Hofiz, Shorahim Shoumarov, Shaborat tanburchi, Abdusoat dutorchi, Abduqodir naychi, Ahmadjon qo‘shnay va boshqalarning nomlari mashhur bo‘la boshladi. Nay, qo‘shnay, chang, rubob, tanbur, dutor, do‘mbira, g‘ijjak, sato kabi cholg‘ular jo‘rnavozlikda, ijrochilik amaliyotida joriy etildi.

Bu davrda ijrochilik uchta asosiy turga bo‘limb, milliy cholg‘ularimiz ijrochiligida yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va orkestr ijrochiligi tushunchasi yangilik sifatida namoyon bo‘ldi. Xalq cholg‘ulari ansambllarining turli xillari shakllandı. Ayni paytda o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi sohasida jiddiy o‘zgarishlar yuz berib

yangidan-yangi shakllar paydo bo‘ldi. Bu davrga kelib maqom ijrochiligidida xonandalar bilan bir qatorda tarkibi turlicha bo‘lgan cholg‘u ansamblari ham ishtirok etdi. Bu jamoalarga Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa dutor, g‘ijjak, bulomon, doira yoki tanbur, tor-doira, Farg‘ona - Toshkent nslubida dutor, g‘ijjak, tanbur, qo‘shnay va doira cholg‘ularidan iborat bo‘lgan ansamblar shakllandi. Buxoro, Xorazm va Qo‘qon ustozlarining ijro maktablari saqlab qolindi.



### **Samarqandda faoliyati milliy yo‘nalishga qaratilgan “Musiqa va raqs ilmiy tekshirish instituti o‘qituvchi va talabalari jamoasi.**

XX asrning 20-yillariga kelib musiqa va san’at sohasining zamonaviy talablari asosida cholg‘u ijrochiligi ikkita yo‘nalish – xalq an’anaviy ijrochiligi san’ati va akademik ijro san’atiga bo‘lindi. Aym chog‘da milliy cholg‘ular Ovro‘pacha yo‘nalishdagi ko‘povozlik musiqa uslubi o‘quv dargohlari va konsert muassasalarida joriy etila boshlandi.

Radio va televidemiye qoshida turli ijodiy jamoalar – maqom ansamбли, estrada ansamбли, xor jamoasi, milliy cholg‘ular orkestri, kamer orkestri, kvartet va boshqa guruhlar tuzilib, müstaqil faoliyat olib bora boshlashdi.

Chang, g‘ijjak kabi cholg‘ularga qo‘s Shimcha torlar qo‘s shilgach (qo‘yilgach), ularning ohang doirasi anchagina kengaydi. 1930-yillarning boshlarida musiqiy cholg‘ulardan dutor, tanbur, rubob va g‘ijjaklarning turdosh oilasi yaratildi. Kichik diapazon va diatonik tovush qatorga ega bo‘lgan changning yuqori registrlariga qo‘s Shimcha torlar va xarraklar qo‘yildi.

O‘zbek xalq cholg‘ulari va cholg‘uchiligi tarixi haqida juda ko‘p hamda uzoq gapirish mumkin. Ammo, biz bugungi imkoniyatlar va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda mavzuni ko‘proq o‘tmishi emas, balki, hozirgi ahvoliga qaratishni o‘rinli deb hisoblaymiz. Shuning uchun ushbu uslubiy qo‘llanmamizda cholg‘u sozlari hamda cholg‘uchilik haqida fikr yuritib, milliy cholg‘ularni zamonaviylik kesimida o‘rganib, asosiy tayanch nuqtani cholg‘u ijrochiligida yakkanavozlik va jo‘rnavozlikka qaratishni maqsad qilib oldik.

# **MILLIY CHOLG'ULAR ZAMONAVIYLIK KESIMIDA. YAKKANAVOZLIK**

Xalq cholg'ulari asrlar davomida taraqqiy topib ularda ijrochilikning uch navi, yam yakka, jo'r va jamoa turlari bilan uzoq yillar davomida rivojlanib musiqiy merosimizda alohida o'rin tutib kelgan. Cholg'u sozlarimizning **torli**, **puflama** va **urma** **cholg'ular** guruhlaridan iborat namunalarining nomlari bizgacha saqlanib kelingan.

Yakkanavozlik deganda – bitta cholg‘u asbobida kuy ijro qilish nazarda tutilgan. Yana bir ko‘rinishi ikkita bir xil yoki turli ko‘rinishdagi cholg‘ularda (tanbur-dutor) jo‘rnavozlik qilib bir ovozli (bir yo‘nalishdagi) kuymi monodiya shaklida ijro etish uslublari tushiniladi. Fikrimizga misol sifatida Muhammadjon Mirzayev va Shavkat Mirzayevlarning qashqar rubobida chalgan “Farg‘onacha tanavor”, hamda Turg‘un Alimatovning Dutor, Tanbur va Satoda chalgan “Kuygay” kuyini jo‘rnavozlikning kichik ko‘rinishi sifatida keltirish mumkin.

KUYGAY

M.M.  $\downarrow = 75$



YU.Rajabiy musiqasi

Tanhur

Tambur

Dutor

Sato





Musical score for three staves in G major. Measures 4-6 feature sixteenth-note patterns with slurs and grace notes, continuing the melodic line established in the previous measures.

Musical score for three staves in G major. Measures 7-9 continue the sixteenth-note patterns with slurs and grace notes, maintaining the rhythmic and melodic flow.

Musical score for three staves in G major. Measures 10-12 conclude the section with sixteenth-note patterns, slurs, and grace notes, providing a sense of completion to the musical phrase.



Jo‘rnavozlik – yana blr ko‘rimishi (cholg‘u asboblarining juftliga) ikkita dutor, ikkita tanbur, ikkita g‘ijjak va ikkita doyra, nay, qo‘schnay, chang va boshqa milliy cholg‘ularda blr ovozli musiqani jo‘rnavozlikda blr oqimdagи kuylar ijro etuvchi “ansambl” bo‘lib, kuy jumlalarini boyitish uchun har blrini alohida-alohida ijro etilgami. Bu atama orkestr ijrochiligida ko‘povozli asar ijrosi ma’nosida keladi. Ko‘povozli asarlarmi milliy cholg‘ular jo‘rligidagi xillari ham turlicha. Hozirgi kunda blzda kamer orkestrlar va katta orkestrlar jamoalari mavjud. Bular “So‘g‘diyona” kamer orkestri va Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘u asboblari orkestri jamoalari. Bu ikki orkestr jamoasida milliy cholg‘ularimizning deyarli ko‘pchillgi, yakkanavozlik va jo‘rnavozlik ijro an‘analari saqlanib qolgan. Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘u asboblari orkestri tomonidan ijro etilgan Muxtor Ashrafiyning “Ko‘chalar” asarida mashhur sozanda Tohir Rajabov yakkanavozlikda qashqar ruboblda mohirona ijro etgan.

# KO'CHALAR

M.M. ♩ = 60

The musical score for KO'CHALAR is presented in two systems, each containing six staves. The key signature changes from one staff to the next, indicating a melodic line that moves through different keys. The first system begins with a dynamic marking of *p* (pianissimo) and covers measures 1 through 6. The second system begins with a dynamic marking of *mf* (mezzo-forte) and covers measures 7 through 12. The music is written in common time (4/4). The notation consists of standard musical symbols: quarter notes, eighth notes, sixteenth notes, and rests. Measures are separated by vertical bar lines, and measure numbers are placed at the beginning of each measure.



**Yakkanavozlik, jo‘rnavozlik va jamoa ijro uslublari** ma’lum ijtimoiy ehtiyojlar, shart-sharoitlar talablari ostida shakllanib va rivojlanib kelgan. Cholg‘u ijrochiligidagi yakkanavozlik uning yuzaga kelishi, ichki xususiyatlari va har bir cholg‘u asbobim tarixi unga mos va muvofiq ijrochilik san’atining sodir bo‘lishi va rivojlamishi haqida alohida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Surnay – cholg‘u sozi qadimiylar cholg‘ulardan bo‘lib, o‘tmishda ommaviy tarzda qo‘snavozlik (ikki-uch va undanda ko‘proq ijrochilar tomonidan)da ochiq maydonlarda, xalq sayillarida, qal’alarni tepasida naqoraxonalarda kuylar ijro qilingan. Bu cholg‘u asbobi bizni davrimizga kelib yakkanavozlikda ommaviy sharoitlarga moslashgan. Bu cholg‘u asbobim surnay deyilishiga ikki sababi bor. Birinchisi surnay ya’ni to‘y nayi. Ikkinchidan Xorazm shevasida sur – aylanma, burilgan degan ma’nomi bildiradi<sup>4</sup>.

---

<sup>4</sup> Ushbu ma’lumot eski surnaychi ustozlardan Qurbonboy Bobojonov (Qurbonboy bulomonchi)dan yozib olingan.



### *Surnay*

Surnay sharq xalqlarida nihoyatda keng tarqalgan cholg‘ularidan biri. Cholg‘u asbobining pastki qismiga tomon (ham tashqarisidan, ham ichidan) konussimon kengayib borgan. 450-500 mm uzunlikdagi yog‘och karnaychadan iborat. Karnaychaning ust qismida yettita, teskari (ost) tomonida bitta chalg‘ich teshikcha mavjud. Karnaychaming puflanadigan tomoniga maxsus moslama (sadaf)ga kiygizilgan qo‘sish tilchali qamish pufakcha o‘rnataladi. Ovozming ancha kuchliligi, tembrining birmuncha “dimog” dan chiqariladigan tovushga moslashib borishi va o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Surnayning diapazom ikki oktavadan oshib ketadi.

M.M.♩ = 90

### YELPAZALANDI

Bozgo‘y

1-xona

Bozgo‘y



Bozgo'y





2-xona



Bozgo'y



3-xona



Bozgo'y



Hozirgi yurtimizda o‘tkaziladigan turli bayram tantanaları, xalq sayilları, ayniqsa, to‘ylarda surnay ijrochiligi yana avj olgan. Nikoh to‘ylarida kelinni uyidan chiqish marosimlarida surnay jo‘rligida kuzatish urf bo‘lib kelmoqda. Bu an’anani qadimiylar ota-bobolarimizning o‘z urf-odatlariga sadoqatlilik ko‘rinishi deb aytish mumkin.

**Qo‘shnay** — akustlk xususiyatlari va soziga ko‘ra bir xil bo‘lgan juft qamish naychalardan yasaladi. Qo‘shnayming naychalari (uzunligi 240-260 mm, diametri 14-16 mm) odatda ingichka ip bilan bog‘lab qo‘yilib, faqat chalish vaqtida shu ipga naychalarni o‘rab jipslashtirishadi. Har bir naycha yetti (ba’zan olti, kam hollarda sakkiz)tadan barmoq teshikchalariga ega. Naychalar nisonga sozlamb diapazonining kengligi ikki oktavagachani tashkil qiladi.

Boshqa puflab chalinadigan cholg‘ulardan farqli tomom tili (yasalgan) qamishni o‘zidan kesiladi, shu yerda tebranish paydo bo‘ladi, shum ichidan ajoyib bir xususiyat beradi. Qo‘shnay ijrochisida eng asosiy narsa bu ijro tomonidan labni to‘g‘ri tuta bilishi. Lab kerakidan sal qattiqroq yoki yumshoqroq bosilsa pardalari boshqacha chiqishi, ko‘tarilishi yoki pastroq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham bu borada qo‘shnay ijrochisidan katta mahorat talab qilinadi. Qo‘shnay yakka cholg‘u qo‘shnavoz cholg‘u sifatida keng tarqalgan.




**Qo‘shnay**


# MUHABBAT

M.M.  $J = 140$

1-xona



2-xona



3-xona



4-xona





5-xona



6-xona



7-xona



8-xona



M.M.  $\text{♩} = 100$

9-xona



10-xona



11-xona



12-xona



13-xona

**Bulomon** — garchi tashqi ko‘rinishi mutlaqo boshqacha bo‘lsa ham, tovush chiqartirish vositasi (asosiy karnaychaning puflanadigan tomonida chalish paytida o‘rnashtiriladigan naychasida tilchalar mavjudligi)ga ko‘ra surnayga o‘xshaydi. Uning ichki tuzilishi va ijro uslubi surnaydan ancha farq qiladi. Surnayda ovoz chiqish ko‘لامи karnaysimon shaklda tuzilgan. Bulomonda esa uning farqi ichki tuzilishida bo‘lib ovoz chiqishi ichkariga qaratilgan. Ya’mi kuchli jarangdor ovoz emas, bariton (bahmal) ovoz beradi.

Bulomon doston, maqom ijrochiligidagi shumingdek, o‘yin maqomlari yo‘lida yetakchi cholg‘ulardan biri.

## UFORI NAVO

M.M. ♩ = 90

1-xona

2-xona

3-xona

**4-xona****5-xona**

Cholg‘u asbobimi uzunligi taxminan 300 mm bo‘lgan silindr shaklidagi yog‘och karnaychadan iborat bo‘lib, pastki qismi tashqi tomondan konus shaklida ozgima kengaygandir. Bulomonda barmoq bilan bosib chalinadigan sakkizta teshikcha mavjud. Diapazomi bir oktava doirasida bo‘lishiga qaramasdan maxsus puflash uslubi bilan

ancha kengayadi. Uning boshqa ko‘rimishlari sharq xalqlari musiqa madamiyatida ham katta o‘rin egallaydi.



*Bulomon*



*Ozarboyjon balamani*

Bulomon ijrochlligi Xorazmda keng tarqalgan bo‘lib kichikroq davralarda doston va maqom ijrochiligidagi qo‘llamilgan.

Puflama cholg‘ular (surnay, bulomon va qo‘schnay) ijrochiligidagi ikkita uslub ishlataladi. Ijrochilar cholg‘u asbobining ishchi diapazomi doirasidan chiqmagan holatda ijro etsalar, ikkinchisi mohir ijrochilar baland pardalarda (o‘zgacha) avjlar qilib cholg‘u asboblar ijro ko‘lamini boyitganlar. Bulomon cholg‘u asbobining qo‘snavozlikda ijro qilinadigan yana bir shakliga qo‘shbulomon deyiladi.

Qo‘shbulomon bu yaqin orada qayta tiklangan cholg‘u asli tarixga nazar soladigan bo‘lsak, bu cholg‘uga o‘xshash ko‘rinishni eramizni I -

II asrlari Termiz yaqinidagi Ayrитом qal'asining peshtоqlarida tasvirlangan musiqiy lavhalarda (cholg‘u chalayotgan ayol) sozandalar tasvirlangan sur'atlarda ko‘rish mumkin. Suratdagi cholg‘uning asl nomlari bizgacha yetib kelmagan.



*Ayrитом topilmasi (Umumiy ko‘rinish)*



*Ud chalayotgan ayol*



*Chiltor chalayotgan ayol*



*Nog‘ora chalayotgan ayol*



*Qo‘schnay chalayotgan ayol*

Beshta cholg‘uchining biri qumsoat shaklidagi zarbli soz, ikkinchisi udsimon soz, uchinchisi chang (arfa), to‘rtinchisi yunoncha damli cholg‘u sozi “avlos”, beshinchisi shartli ravishda “katta nay” (fleyta pana – ilohiy nay)mi chalayotgami tasvirlangan. Yunonlarda “avlos” nomini olgan cholg‘uning aynan turdoshi Xorazmda “qo‘s sh bulomon”<sup>5</sup> deb nomlangan.



*“Avlos” chalayotgan ayol rasmi “Avlos”ni boshqa ko‘rinishi*

<sup>5</sup> Ayrитом тасвиридаги авлосга о‘xшаш cholg‘u соzlарининг namunasi xorazmlik ustozlar qо‘lida saqlangan va uni qо‘shbulomon deganlar. Qо‘shbulomon xorazmlik keksa ustoz (surnaychi) Matyoqub Olloyorov qо‘lida bo‘lgan, bir bo‘lagini shogirdi Matrasul Matyoqubovga bergen. Qо‘shbulomon qoldiqlari asosida zabardast ustoz musiqashunos Rustam Boltayev va Matrasul Matyoqubovlar tomonidan 1985-yilda qayta tiklangan.

Tasvirdagi “katta nayga” o‘xhash cholg‘u XV asrda Samarqand va Hirotda yashagan Abdulqodir Marog‘iy risolalarida “Shox nay” nomi bilan yuritiladi. Yozma manbalarda qo‘shnayga o‘xhash “Mizomir” (qo‘shaloq nay) haqida ma’lumotlar mavjud, ammo, qo‘shbulomon nomi ularda uchramaydi.



### *Qo‘shbulomon*

Qo‘shbulomon cholg‘u sozi tashqi ko‘rinishidan qo‘shnayga o‘xhab ketadi. Qo‘shnay bilan qo‘shbulomonning farqi anchagina. Ma’lumki, qo‘shnay qamish naychalarining o‘zidan til kesib, tovush chiqariladigan sibiziqning juftlangan shakli. Qo‘shbulomon esa, tut daraxtidan ishlanadigan mumtoz cholg‘u asbobi. Uning yakka ko‘rinishi Ozarboyjonlarda “balaman” deyiladi. Ammo bulomonning qo‘shaloq shakli boshqa xalqlarda ma’lum ekanligi to‘g‘risida ma’lumotlarga ega emasmiz. Qo‘shbulomondan alohida kuy ijro etish hamda suvora ijrochiligida qo‘llanilgan. Hozirda bu cholg‘u asbobi sozandalar tomonidan amaliyotga joriy etilib zamonaviy ijrochilikda o‘z o‘rnini topmoqda.

### DUGOH SUVORIYSI

M.M. ♩ = 80

1-xona

2-xona

Bozgo'y

3-xona

Bozgo'y

4-xona



**Nay** – sharq xalqlari o‘rtasida keng tarqalgan cholg‘u sozi bo‘lib, qamish, yog‘och, metalldan yasaladi va shunga muvofiq o‘zining har xil turlariga ega. Odatda uning uzunligi 450-520 mm bo‘lib, fleytaga o‘xshab ko‘ndalangiga ushlab chalinadigan silindrsimon teng diametrli naychaning yuz tomonida bir puflagich va oltita chalg‘ich (barmoq bosib chalinadigan) teshikchalar mavjud. Teshiklarning hammasi berkitilgan holda nayda kichik oktava *sol* tovushini hosil qilishi mumkin. Yani tanbur sozining boshlang‘ich tovushidir. Har bir teshikni ketma-ket muvofiq tarzda ochish *lya, si, do* va hokazo tovushlarni beradi. Bundan tovush balandligini sozlash andozalarining an’anaviy nomlari kelib chiqqan: uch qo‘l (uch barmoq qo‘yilishi), to‘rt qo‘l va hokazo. Ansambl ijrochiligida nayning yana bir fazilati – barcha cholg‘u asboblarim sozlashda o‘ziga xos “**kamerton**” vazifasini o‘taydi.



### *Nay*

Jununim boisi bo‘lg‘on pari ruxsorlardurlar.

Iki zulfungmudir, ey siymbar, qadding bila tengru,  
Ki chirmashqon niholi sarv uza yo morlardurlar.

Bu gulshan uzra bulbuldek bizi sohib navo etgan,  
Chaman siymolar ila lolagun ruxsorlardurlar.

Muhabbat vodisida men kabi Farhod ila Majnun,  
Balo tog‘i, g‘am dashtida qolg‘on zorlardurlar.

Alimda ixtiyorim ko‘zlarin ko‘rgon chog‘i qolmas,  
Ki oshiq ko‘nglim olmoqqa cho‘q ayyorlardurlar.

Parishon ohiarkim, chekmisham g‘am jilvagohida,  
Jununim shohidig‘a zulfi anbarborlardurlar.

Amirim bo‘lmasa homiy meni o‘lturgudek bir kun,  
Ul iki ko‘zki ikki zolimi xunxorlardurlar.

Ovoz, tanbur va doira jo‘rnavozligi oddiy, lekin o‘ta go‘zalligini domla Halim Ibodovning “Navro‘zi Sabo” ashulasi misolida ko‘rish mumkin. Bu ashula ijrochiligi orqali ustoz ovoz va unga jo‘r bo‘lgan tanbur cholg‘u asbobi ijro imkoniyatlarini to‘la ko‘rsata olganlar. Surnay cholg‘u asbobidagi tus (tembr) boyligi undan chiqadigan sirli ovoz haqiqatan ham tabiatning ajoyib bir mo‘jizasi (in’omi). Bu cholg‘u asbobidagi ko‘rkam ovoz inson tuyg‘ularini sehrlab qo‘yadi. Ovoz go‘zalligini o‘lchaydigan uskuna yoki aniq bir mezon yo‘q, albatta. Har bir insonning ovozi o‘ziga xos va betakror. Xorazmda nikoh to‘ylarida ayol ashulachilar tomonidan baland ovoz bilan surnay jo‘rligida “Biroollohim” (haftaning har bir kumiga hamdu sano) ashulasi aytilgan.

## BIR OLLOHIM

The musical score consists of two staves. The top staff is for the Surnay, indicated by a soprano clef and a key signature of G major (one sharp). It features a mix of eighth and sixteenth notes, with a fermata over the eighth note of the first measure. The bottom staff is for the piano, indicated by a treble clef and a key signature of G major. It provides harmonic support with sustained notes and chords.

Jo‘rnavozlikni yana bir ko‘rinishi bir – biriga turdosh bo‘lgan cholg‘u asboblarda cholg‘u kuylarni ijro etish. Bir cholg‘uda turlucha usullar bilan ijro etish an’analarini Turg‘un Alimatovning ijrochilik faoliyatida kuzatish mumkin. Tanbur, dutor, sato asboblarini mohirona egallagan Turg‘un Alimatov o‘zbek an’anaviy musiqasi tarixidagi yangi yo‘nalish bo‘lib kirgan ijro uslubini yaratgan.

Jo'raxon Sultonov ham mumtoz yo'llar va katta ashulalar ijrosida zabardast hofiz sifatida dong taratgan. Tanbur jo'rligida ashula ijro etib bo'limlari oralarida tanburda ijro mahoratini ustozlik bilan ko'rsata olgan. Ustoz qo'shiq ijrochiligidagi hamnafaslik uslubida Ma'murjon Uzoqov bilan ijod etgan.

Davr taqozosi bilan o'tgan asrning 50-60-yillarida qo'shiq ijrochillgida jo'rnavoz cholg'ular qatorida akkordeon va skripka cholg'u asboblari qo'shilgan. Ularni farg'onalik G'ulomjon Xojiqulov bir qator hofizlar bilan, Ollanazar Hasanov xorazmlik hofizlar Xojixon Boltayev va Komiljon Otaniyozovlar yonida qator qo'shiqlarga jo'rnavozlik eta boshlaganlar.

Qashqar rubobi ham yakkanavoz cholg'u sifatida keng tarqaldi. Muhammadjon va Shavkat Mirzayevlar bu cholg'u asbobida jo'rnavozlikda qator kuylarmi ijro qilganlar. Muhammadjon Mirzayev taniqli hofiz Ma'murjon Uzoqovga ham jo'rnavozlik qilgan.

Ustozlar izidan borib jo'rnavozlik an'anasini targ'ib qilishga bosh-qosh bo'layotganlardan Abduhoshim Ismoilov Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambliga borib, avval sozanda, so'ngra badiiy rahbar sifatida faoliyat olib bordi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida o'zimeng vertuoij ijrolari bilan shuhrat topgan jahongashta sozanda Abduhoshim Ismoilov jo'rnavozlikda juda ko'plab yangi ijodiy ishiarmi amalga oshirgan. Uning rahbarligida sozandalar Abdurahmon Xoltojiyev (qonunda) Abdulahad Abdurashidov (nayda) ijro etgan "Hayrona" kuyi jo'rnavozlikni yangi nsullarida joriy etilgan.

## HAYRONA

M.M. = 104

A. Ismailov musiqasi  
R. Boltayev notaga oldi

The musical score consists of two staves. The top staff is for the solo G'ijjak, indicated by the text "solo G'ijjak" above the staff. The bottom staff is for the bassoon. The music is in common time (indicated by '8'). The top staff begins with a rest, followed by a series of eighth-note chords. The bottom staff begins with a bassoon line consisting of eighth-note chords. A dynamic marking 'mf' (mezzo-forte) is placed over the bassoon line. The music continues with alternating patterns between the two instruments, with several rests interspersed throughout the piece.

A musical score for orchestra and choir in G major, 2/4 time. The score consists of six systems of music, each with two staves. The top staff of each system is for the orchestra, featuring various instruments like strings, woodwinds, and brass. The bottom staff is for the choir. The vocal parts are labeled "Ansambl" (ensemble) in the first three systems. The vocal parts consist of soprano, alto, tenor, and bass voices. The music features a variety of rhythmic patterns, including eighth and sixteenth note figures, and dynamic markings such as forte and piano.

The image shows four staves of musical notation. The top three staves are in common time (indicated by a 'C') and have a key signature of one sharp (F#). The bottom staff is in 2/4 time and has a key signature of one sharp (F#). The music consists of six measures per staff. The first three staves feature eighth-note patterns, while the bottom staff features sixteenth-note patterns. The notation includes various rests and dynamic markings like 'p' (piano) and 'f' (forte). The fourth staff begins with the instruction 'Presto'.



solo G'idjak





solo Nay



The musical score consists of six staves of music in G major, 2/4 time. The instruments include a bassoon, a woodwind instrument, a brass instrument, a string instrument, a piano, and a vocal part. The score features dynamic markings such as *f*, *p*, *mf*, *mp*, and *pp*. There are also slurs, grace notes, and various articulation marks. The vocal part includes lyrics in Russian and English. The piano part has a section labeled "Ansambl". The score concludes with a final section for the vocal and piano parts.

Uchta sozanda badihanavozlik qilib o‘zbek musiqasini cholg‘u ijrochiligida yangi sahifasini ochib berdi. Bu ijro jo‘rnavozlikni yakka ovoz ko‘pnavozlik (bir kuyni turli cholg‘ular)da ijrosi.

## KO‘P OVOZLI CHOLG‘U MUSIQASI

XX asr boshlarida o‘zbek xalq cholg‘ulari ijrochiligi sohasida o‘zgarishlar yuz berib yangidan-yangi shakllar paydo bo‘ldi. Yangi uslublardan biri cholg‘u ansambllari bo‘lib uning turli xillari shakllandi. Bu davrga kelib cholg‘u kuylari xalq qo‘shiqlari maqom ijrochiligidagi xonandalar bllan blr qatorda tarkibl turlicha bo‘lgan cholg‘u ansambllari ham ishtirok etdi. Bu jamoalarga Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa dutor, g‘ijjak, bulomon, doira yoki tanbur, tor doira, Farg‘ona-Toshkent uslubida dutor, g‘ijjak, tanbur, qo‘schnay va doira cholg‘ularidan iborat bo‘lgan ansambllar shakllandi. Bu jamoalarda Buxoro, Xorazm va Qo‘qon ustozlarining ijro maktablari saqlanilib qolindi. Xalq kuylari bllan bir qatorda jo‘rnavozlikda “Nigorim”, “Galdir”, “Fig‘on”, “Chaman yalla” singari ashulalarmi hofizlar xalq cholg‘u asboblari ansambli jo‘rligida ijro eta boshiadilar. Bu uslublarni shakllantirishda To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, Jo‘raxon Sultonov, G‘anijon Toshmatov, Faxriddin Sodiqov kabi bastakorlar katta hissa qo‘shtigan. Ansambl uslubl doirasida qariyb barcha xalq cholg‘ulari (dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g‘ijjak, nay, qo‘schnay, surnay, karnay, doira, nog‘ora) namoyon bo‘ladi. Ommaviy bayram, xalq tantanalari va to‘y marosimlarida surnay, karnay, nog‘ora va doiralardan iborat ansambl sadolari yangrasa, uyxona sharoitlarida dutor, tanbur, g‘ijjak kabli nisbatan mayin sadoli cholg‘ular qo‘llaniladi. “Dilxiroj”, “Andijon polkasi”, “Farg‘ona rezi”, “Tanavor” kabli jozibali raqs kuylari jo‘rnavozlikda ijro etila boshiandi. Bayram sayllari, musiqa tomoshalarida surnay, nog‘ora, karnay ansambllari asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, turli yig‘in majlislarda g‘ijjak, buxoro (afg‘on) rubobi, dutor, nay, tanbur ayniqsa, tor va boshqa sozlar ijrochiligi keng tarqalgan. Shuningdek, tor, akkordeon, skripka va doyra sozlaridan iborat bo‘lgan cholg‘u ansambli ham an’anaviy tus olgan.

O'tgan asrning 40-yillari oxirida Buxoroda Abdurauf Fitrat tashkil etgan sharq musiqa maktabida, keyinchalik Moskva Konservatoriyaning maxsus kurslari (rabfak)da billmlarini oshirganlardan Sh.Sohibov O'zbekiston radiosida milliy ansambl rahbari, F.Shahobov esa O'zbekiston Filarmomiyasi qoshidagi qo'shiq va raqs ansamblining badiiy rahbari vazifalarida ishiaganlar.

Shashmaqomning ijrolarini tiklash va ularni notaga olish ishlari O'zbekistonda 50-yillarning oxiridan yangidan avj ola boshladi. Avvallari maqom ijrosi Toshkent radiosи qoshidagi milliy ansambl zimmasida bo'lgan edi. Unda klassik kuy va ashulalar respublikaning turli joylaridan to'plangan atoqli ustozlar, shuningdek, yangi avlod hofiz va sozandalari ijrosida efirga uzatilib turilgan.



***Yunus Rajabiy rahbarligidagi maqom ansamбли***

1958-yilda O‘zbekiston Radio va televideniyesi davlat qo‘mitasi qoshida Yunus Rajabiy rahbarligida maxsus maqom ansambl tashkil etildi. Jamoaning dastlabki maqsadi – Olti maqom turkumini to‘laligicha radioning ovoz fondi uchun yozib olish edi. Bu ish oldin qog‘ozga tushirilgan nota yozuvlarini amalda sinab ko‘rish uchun ham o‘ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini ham bajardi.

Yunus Rajabiydan keyin maqom ansambliga turli san’atkorlar boshchilik qildi. Uzoq yillar davomida Yunus Rajabiy yonida musiqa rahbari vazifasida ishlagan Faxriddin Sodiqov, undan keyin ansamblni Yunus Rajabiy maktabida voyaga yetgan hofiz Orif Alimahsumov boshqardi. So‘ngra Konservatoriyada ta’lim olgan sozandalarning yangi avlod vakillari: Shavkat Mirzayev, Abduhoshim Ismoilov, I. Vahobov va yana Abduhoshim Ismoilov rahbarligida Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambl faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

## NASRULLOYI I

**1-xona Ansambl**

**M.M. ♩ = 104**

Bozgo'y

Musical score for Bozgo'y section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

Musical score for 2-xona section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

2-xona

Musical score for 2-xona section. Treble clef, key signature of one sharp. Dynamics include a dynamic marking *p*. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

Musical score for 3-xona section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

3-xona

Musical score for 3-xona section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

Musical score for final section. Treble clef, key signature of one sharp. Dynamics include a dynamic marking *p*. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

Musical score for final section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

Musical score for final section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.

Musical score for final section. Treble clef, key signature of one sharp. Measures show eighth-note patterns with slurs and grace notes.



**4-xona**    *Rubob, Tanbur, Dutor*



**Bozgo'y**



**5-xona**    *Tanbur, Dutor*



**Bozgo'y**



6-xona *Qo'shnay*

7-xona *Ansambl* *mf*

8-xona *Rubob*

*Bozgo'y* *mf*

**9-xona**

**10-xona**

*Nay*

**G'ijjak**

**11-xona**

*Chang*

A musical score page featuring six staves of music. The top staff is for the ensemble (Ansambl). The second staff is for the 12-xona, marked with *mf*. The third staff is for the 13-xona. The fourth staff is for the Bozgo'y, marked with *mf*. The fifth staff is for the ensemble (Ansambl). The bottom staff is divided into sections: 13-xona (Ansambl), Rubob, Tanbur, Dutor (Ansambl), G'ijjak, Qo'shnay (Ansambl), and another section for the ensemble (Ansambl).



*Bozgo'y*  
*mf*

Musical score for Bozgo'y section, second system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns, with the third measure featuring a melodic line above the staff.

Musical score for 14-xona section, first system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns.

*14-xona*

Musical score for 14-xona section, second system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns.

Musical score for G'ijjak section, first system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns.

Musical score for G'ijjak section, second system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns.

*G'ijjak*

Musical score for Ensemble section, first system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns.

Musical score for Ensemble section, second system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The music consists of six measures of eighth-note patterns.

*Ansambl*  
*mf*

*Rubob*

Musical score for Ensemble and Rubob sections, first system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The Ensemble part consists of six measures of eighth-note patterns, and the Rubob part consists of six measures of eighth-note patterns.

Musical score for Ensemble and Rubob sections, second system. Treble clef, key signature of one sharp (F#), common time. The Ensemble part consists of six measures of eighth-note patterns, and the Rubob part consists of six measures of eighth-note patterns.

*Ansambl*

XX asrming 40-yillarining oxiri 50-yillarining boshlarida davlat ta’limi sohasida xalq cholg‘u asboblari bilan bir qatorda Ovro‘pa cholg‘u asboblari (skripka, fortepiano, akkordeon, klarnet va boshqa) ijrochilik yo‘nalishlari joriy etila boshlandi. Boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim tizimida o‘zbek milliy cholg‘u asboblari (tanbur, dutor, g‘ijjak, nay, chang va boshqalar)da ko‘proq Ovro‘po, rus va o‘zbek kompozitorlarining asarlari ijro etila boshlangan.

Ansambl ijrochilagini joriy etish va unda tovush ko‘lamini to‘ldirish uchun Ovro‘pa torli-kamonli va puflab chalinadigan cholg‘u asboblarini qo‘sishga harakat qilingan. Ovro‘pa cholg‘ularining ijro imkomiyatlari o‘zbek musiqasining an‘analariga moslashtirilib ommaviy kuylar ijro etilgan. Zamonaviy musiqa rivojlanishida joriy etilgan cholg‘u asboblar uchun kompozitorlar tomonidan kamer-cholg‘u musiqasi uchun asarlar ijod qilina boshlandi.

Cholg‘u musiqasining yakkanavoz sozanda, ansambl (trio, kvartet, kvintet) va orkestr tomonidan chalinadigan (simfonik musiqa kabi) asarlar kompozitorlar tomonidan yaratildi.

40-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zbek kamer-cholg‘u musiqasi janr namunalari, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari bilan bir qatorda fortepiano, skripka va violonchel uchun yozilgan kompozitorlar V.Uspenskiy, M.Burhonov, G.Mushel, S.Yudakovlarning asarlari paydo bo‘la boshladi.

V.A.Uspenskiyning kamer-cholg‘u musiqasining turli shakl va janrlarida fortepiano uchun prelyudiya, sonata, variatsiya, etyud, o‘zbek xalq musiqasi “Miskin-2”, “Muxammasi Iroq”, “Savti Ajam”, “Samoiy Dugoh” va “Askariy” asosida pyesalar to‘plami (birinchi daftari), “Ufor-Soqiynama”, “Bayonchi”, “Naylaram”, “Usmoniya” va “Rajabiy” to‘rt qo‘1 uchun pyesalar to‘plami (ikkinchi daftari) yaratildi.

Respublikamizda kamer-cholg‘u musiqasi janrlari rivojlanishiga 50-60-yillarda B.Giyenko va B.Zeyzmanlar katta hissa qo‘shgan. B.Giyenko mazkur janrda 9 ta kvartet, “24 prelyudiya”, “Akvarellar” va “Ruboiylar” kabi turkumlarni yaratdi.

1962-68-yillarda Rumil Vildanovning fortepiano uchun 9 ta “Prelyudiya”, “Variatsiya”, “Ekspromt va tokkata”, skripka va fortepiano uchun “syuita”, violonchel uchun sonatina, violonchel va fortepiano uchun sonata, organ uchun 3 ta pyesa kabi asarlari paydo bo‘ldi. B.Zeydmanning to‘rt qo‘1 uchun 5 ta fortepiano pyesasi, damli cholg‘ular ansambliga 6 ta pyesa, kamonli cholg‘ular uchun pyesa va uchta kvartet, skripka, violonchel va fortepiano uchun trio, fortepiano kvinteti, skripka, violonchel va orkestr uchun sonata, violonchel va fortepiano, goboy va fortepiano uchun sonatanalarni yaratgan.

Fortepiano uchun yaratilgan Ik.Akbarov (“Alla”, “Karvon”, “Noktyurn”, “Tokkata”), H. Izomov (“Tokkata”, “Musiqali quticha”), S.Abramova (“Polifomik pyesalar”), S.Jalil (“So‘zsiz qo‘shiq”)lar turli janrlardagi miniaturalari M.Tojiyevning ikkita prelyudiya, sonatina, syuita, violonchel va fortepiano uchun “Elegiya”, fleyta va fortepiano

uchun “Qo’shiq”, truba va fortepiano uchun sonatina, torli kvartet, “Fortepiano triosi” ajralib turadi. So‘nggi yillarda kichik shakllardagi asarlarni V.A.Berlin, P.Xoliqov, D.Saydaminova va boshqa kompozitorlar yaratdilar. Fortepiano dueti borasida G. Mushelning “Samarqand syuitasi” va S. Yudakovning “Raqs syuita”lari (50-yillar oxiri – 60-yillar boshi) keng shuhrat qozondi.

S.Yudakovning uch qismli “Raqs syuita”si shirador koloriti o‘zbek og‘zaki-professional merosidan o‘rin olgan cholg‘u musiqasi va maqomlarning ikki tuzilmali asosida yaratilgan.

## RAQS SYUTASI

S. Yudakov

**Andante**

“Raqs syuitasi”m birinchi qismi Xorazm xalq kuyi “Norim-norim”ga asoslangan simfonik partitura asosida yuzaga kelgan. Ikkinci qismi (“Ozarbayjoncha lirk raqs”) yakka raqs bo‘lib, ikki chetdagi qismlar ommaviy raqslarga taqqoslantirilgandek, ular orasida keskin kontrast hosil qiladi. Uchinchi qismi “Farg‘onacha raqs” syuitaning eng

yorqin qismi bo‘lib, umi mashhur “Qaylarga boray” xalq qo‘shig‘iga tayangan holda yaratadi. Kompozitor bu asarda milliy an’analarni zamonaviy kompozitorlik texmikasi va ijrochiligining milliy uslublarini qo‘llashga harakat qilgan.

70-yillar boshlarida fortepiano triosi janrida ikki asar G.Mushelning “T.Jalilov xotirasiga trio” va U.Musayevning “A.Navoiy xotirasiga trio”lari yozildi.

Kamer janrlarda torli kvartet o‘ziga xos o‘rin egallagan. Bu janr oddiy qayta ishiashga syuitalardan murakkab siklli asarlargacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlabki syuitalardan M.Leviyev, S.Yudakov, G.Sobitovlarning xalq kuylariga yozilgan asarlarimi aytib o‘tish mumkin. 40-50-yillar atrofida sonatali va siklli asarlar yaratishga harakat qilinib, ilk torli kvartetlar yozildi. Bularning aksariyati keyingi (60-yillar boshlarida yaratilgan) asarlar singari raqsbop qo‘shiq, ba’zan folklor kuylariga asoslangan.

Masalan, D.Suatqulov “Farg‘ona kvarteti” deb nomlagan o‘z kvartetini Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan ashula va cholg‘u kuylariga asoslangan.

$\text{♩} = 103 = 108$

"Mo‘g‘ilchai Munojat"

50-yillar oxiri 60-yillar boshida B.Giyenko tomonidan beshta kvartet yaratilgan. 60-70-yillar davomida o‘zbek kamer musiqasiga Ik.Akbarov yaratgan kvartetlari bilan katta hissa qo‘shgan.

Mustaqillik yillarida kamer-cholg'u musiqa rivojida o'zbek kompozitorlaridan R.Abdullayev, M.Bafoyev, H.Rahimov ham samarali ijod qilib kelmoqdalar.

Kamer-cholg'u musiqa rivojida kompozitor R.Abdullayevning 5-fortepiano konserti alohida diqqatga sazovor bo'lgan asarlardan biri hisoblanadi.

## Konsert

(Orkestr va fortepiano uchun)

R. Abdullayev

The musical score consists of three staves of music. The top staff is for the piano, starting with a dynamic of *p* and transitioning to *mf*. The middle staff is for the orchestra, showing bassoon parts. The bottom staff is also for the orchestra, showing double bass parts. The score is in 3/4 time, with key signatures of A major (two sharps) and D major (one sharp). The music includes various note heads, rests, and slurs, with some notes having stems pointing in different directions. Measure numbers are present at the beginning of each measure.

# **O'ZBEK XALQ CHOLG'U ASBOBLARI ORKESTRI VA SIMFONIK ORKESTR UCHUN YARATILGAN ASARLAR**

1938-yili o'zbek filarmoniyasi qoshida N.N.Mironov va A.I.Petrosyanslar tomonidan tashkil qilingan "O'zbek xalq cholg'ulari orkestri" uchun ko'pgina kompozitorlar ko'p ovoz uslubida qayta ishlab, orkestrlar uchun pyesa, poema, uvertyura va syuitalar kabi asarlarmi yozdilar. B.Giyenko orkestr repertuarini boyitish uchun bastakorlar N.Hasanov va S.Kalonovlar yaratgan qator kuylarimi shuningdek, o'zbek xalq kuy va qo'shiqlaridan "Aylab keling" va "Ul pari" kabilarni ovoz va orkestr uchun moslashtirdi. Keyingi ijodiy faoliyati davomida orkestr uchun "Fantaziya", rubob va orkestr uchun "Konsertino", "Guldasta" syuitasi va boshqa asarlarni ijod qildi. Orkestr sohasida katta tajriba to'plagan B.Giyenko tomonidan 1959-yili o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun cholg'ulashtirish o'quv qo'llanmasi yaratildi.

1940-60-yiliarda kompozitorlardan G'.Qodirov va S.Boboyevlar o'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun bir qator asarlarni yaratdilar.

G'.Qodirovning "Kichik uvertyura", "Vals", "Yoshlar valsi", "Qizlar raqsi", "Yigitlar raqsi", "Paxta raqsi" syuitalari, Sobir Boboyevning "Poema", "Bayram uvertyura"si asarlari o'zining jarangdor, go'zal va boy milliy ohanglari bilan ajralib turadi.

O'zbek xalq cholg'ulari orkestri uchun o'zining shodiyona ohangdor ko'tarinki ruhi, milliyligi, shaklining ixcham, mukammal professionalligi, orkestrning rang-barang jaranglashi bilan ajralib turadi. Bu asar kompozitormi elga tanitdi. U birgina muailifning ijodiy yutug'i emas, butun zamonaviy o'zbek musiqa san'atining va ayniqsa, orkestr jamoasining ham yutug'i bo'ldi.

O'zbekiston radiosи qoshidagi (1953-yilda tarqatib yuborilgan) "O'zbek xalq cholg'u asboblar orkestri" 1957-yili qaytadan tiklandi.

Orkestrga Y.Rajabiy badiiy rahbar, Doni Zokirov bosh dirijor qilib tayinlandi. D.Zokirovning o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun moslashtirgan “Qaytarma”, “Fig‘on”, “Cho‘li Iroq”, bulomon va orkestr uchun “Sharob”, nay va orkestr uchun “Farg‘onacha”, “Gadoiy”, “Jazoir” kabi asarlari mahorat bilan orkestr uchun qayta ishlandi. Shuningdek, kompozitorning maqomlarmi cholg‘u qismlari asosida orkestr uchun qayta ishlagan “Navo”, “Savti navo”, “Ufari navo”, “Garduni segoh”, “Tasnifi dugoh”, “Muxammasi iroq”, “Nasrulloiy”, tanbur va orkestr uchun “Rajabiy” kabi asarlari orkestrlar repertuaridan keng o‘rin oldi.

1960-70-yillarda M.Burhonov, B.Zeydman, M.Nasimov, S.Varelas, M.Mahmudov, S.Jalil va T.Qurbanovlar o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri repertuarini boyitishda barakali ijod qildilar. Bu davrda T.Qurbanov o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun “Xamsa”, 80-90-yillarda birin-ketin: “Bayram uvertyurasi”, “Lirik poema”, “Qo‘shchinor”, “Poema”, g‘ijjak va orkestr uchun “Konsert-poema” asarlarini yaratdi.

1980-yilda kompozitor M.Bafoyev O‘zbekiston radiosи qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestriga dirijor lavozimiga taklif qilindi. Olti yildan so‘ng u orkestrning bosh dirijori va badiiy rahbari vazifasida ishlay boshladi. M.Bafoyev o‘zi rahbarlik qilgan D.Zokirov nomidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun turli muntazam janrlarda musiqiy asarlar bastalab, jamoa repertuarini boyitib keldi. Qashqar rubobi va orkestr uchun “Poema” “Bayram tantanasi” poemasi, dutor va orkestr uchun “Konsert-poema” o‘zining jarangdor, go‘zal va boy ohanglari bilan ajralib turadi.

1992-yill yangi “So‘g‘diyona” o‘zbek xalq cholg‘ulari kamer orkestri tashkil etildi (badiy rahbar va bosh dirijori F.Abdurahimova).

“So‘g‘diyona” qisqa vaqt ichida o‘zining repertuarini yaratib, tinglovchilar e’tiborini qozonishga muvaffaq bo‘ldi. Orkestr Olmoniya, Gollandiya, Fransiya, Misr, Turkiya, Ispaniya mamlakatlarida ijodiy safarlarda bo‘lib, xalqaro miqyosdagi turli musiqa festivallarida –

“Sharq taronalari”, Xalqaro simfonik musiqasi, Respublika xalq cholg‘ulari orkestri festivali, XXX Xalqaro musiqa festivali (Ispamiya)da muvaffaqiyat bilan qatnashdi.

Uning repertuarlaridan o‘zbek xalq kuylari, jahon xalqlari cholg‘u kuylari, O‘zbekiston va jahon mumtoz kompozitorlari asarlari o‘rin olgan, jumladan, M.Bafoyevning “Buxorcha konsert”, “Ud va orkestr uchun poemasi”, “Xorazmcha kaprichcho” fortepiano va orkestr uchun, “Buxorcha zang” konserti, H.Rahimovning “Taronna va ufor” qonun va orkestr uchun, fortepiano va orkestr uchun fantaziya, F.Alimovning “Andijon polkasi” va “Markaziy kuylari asosida popuri” A.Mansurovning “Mustaqillikka bag‘ishlov” Odasi, “Yangra doira” kabi asarlarni misol qilish mumkin.

Kompozitorlar tomonidan o‘zbek xalq kuylarimi xalq cholg‘u asboblari orkestri va simfonik orkestr uchun moslashtirishning ilk tajribalari qilib turli janrlar doirasini o‘ziga olgan o‘zbek xalq kuy va ashulalari “yangi mazmun” bilan to‘ldirilib, Ovro‘pacha shakllarga o‘girila boshlandi. O‘zbek kuylari simfonik shaklda qayta ishlandi. O‘zbekiston kompozitorlaridan V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, M.Burhonov, Muxtor Ashrafiy, S.Yudakov, D.Soatqulov, D.Zokirov, B.Giyenko, S.Boboyev, Sayfi Jalil kabilar simfonik va o‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri, shuningdek, fortepiano va boshqa cholg‘u sozlar uchun turli syuitalar musiqali dramalarga uvertyular yaratishgan. Kompozitor Abdusharif Otajanov va Rahmon Ollaberganovlar “Oshiq G‘arib va Shohsanam” musiqali dramasiga yozilgan uvertyurasi rubob (tor) yetakchi cholg‘u vazifasini bajargan.

## UVERTYURA

“Oshiq – G‘arib va Shohsanam”  
musiqali dramasidan

The musical score consists of two staves. The top staff is for the orchestra, starting with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a common time signature. It features a series of rests followed by a dynamic instruction 'Tor' above a sixteenth-note pattern. The bottom staff is for the piano, showing a continuous eighth-note bass line. The score is divided into measures by vertical bar lines.



60-70-yillar chegarasida M.Tojiyevning “Shoir sevgisi” deb nomlangan ajoyib simfonik poemasi paydo bo‘ldi. Maqomga, asrlar qa’ridan bizgacha yetib kelgan og‘zaki ijodning klassik asarlariga qiziqish Tojiyev musiqasining ba’zi tuzilish yo‘llarini belgilabgina qolmay, balki eng muhimi unimg falsafiy xususiyati koloritning vazmin ravon va dramatik teranlikni belgilaydi.

Cholg‘u musiqanining barcha sohalari orasida murakkab bo‘lgan simfoniya O‘zbekistonda (nisbatan yangi bo‘lgan ushbu soha) tarixan nihoyatda qisqa muddat ichida shakllanib samarali rivoj topdi. Milliy simfoniya sari ildamlik Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Mutal Burhonov, Doni Zokirov, Sayfi Jalil singari zabardast kompozitorlarning katta-kichik cholg‘u asarlarida ham namoyon bo‘ladi.

**“Zarkokil”**  
**(O‘zbek xalq kuyi)**  
 Simfomik orkestr uchun  
 V.Uspenskiy qayta ishlagan

Flute

Oboe

Cor Anglais

Cor Anglais

Clarinet in B

Bass Clarinet in B

Trumpet in B

Trombone

Percussion

Percussion

Violin 1

Violin 2

Viola

Violoncello

Contrabass

①

*mf*

①

*mf*

①

*f*

*f*

pizz.

*p*

Mirsodiq Tojiyev ham shuningdek, O‘zbekistonda simfoniya yo‘nalishda yirik maktab yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Uning 3-simfoniyasida orkestrga singdirilgan mungli “Segoh” ohanglari, Tezkor sur’atli 2-qismda kompozitor Xorazm doston nomalaridan “Bolamga o‘xshaydi ovozing seni” kuyini butkul qayta ishlab, uni shiddatli, va ayni chog‘da jo‘shqin taronaga aylantirgani holda orkestrga ustalik bilan cholg‘ulashtirgan.

### 3-SIMFONIYA

#### (1-qism)

**Adagio**

**Clarinet in B** solo

**Arpa**

**Piano**

**Violin 2**

**Viola**

**Adagio**

## XULOSA

Milliy cholg‘ularimiz ming yillik tarixga ega. Asrlar davomida milliy cholg‘ularimiz tarixini o‘rganish va ularni bizning davrimizgacha saqlanib kelishida qanchadan-qancha iste’dodlar, qalbi milliy g‘urur bilan to‘lib-toshgan xonanda-sozanda, bastakor hamda musiqashunoslar jonbozlik ko‘rsatganligini hech ham unutmasligimiz kerak.

Cholg‘ushunoslik masalalarini sohaning har bir qirrasini alohida olgan holda: ijrochilik (cholg‘uchilik, ashulachilik, dirijorlik), sozgarlik yoki ijod muammolarini hal etish qiyin.

Bugungi kunda cholg‘ushunoslik, uning birinchi navbatda hal qilinadigan muammolariga tegishli masalalar ko‘tarilmoqda. Shu o‘rinda, taniqli sozgar Usta Usmonning katta o‘g‘illari To‘xtamurod Zufarovning “Soz va sozgarlik tarixi” kitobi va musiqashunos Otanazar Matyoqubovning yaqinda “Yosh kuch” jurnalida e’lon qilingan “Rubob – torning vatanga qaytishi” maqolalarini aytish mumkin.

Usta Usmon sozshunoslik sohasida yorqin iz qoldirgan sozgar. Uni “o‘zbek Stradivarisi” ham deydilar. Ma’lumki, Antonio Stradivari Uyg‘onish davrida beqiyos skripkalar yasagan va shu bilan mazkur cholg‘u taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘sghan usta. Stradivari 5-6 asr oldin yaratgan skripkalar bugungi kunda ham dunyo muzeylarining eng qimmatli va million-million dollarlar bilan baholanadigan ashyolari hisobianadi.

Usta Usmon ishlagan tanbur, dutor, g‘ijjak va boshqa cholg‘ular ham bugungi kunda milliy musiqiy qadriyatlarimizning mislsiz ashyoviy dalillari bo‘lib qolmoqda.

Usta Usmon zamonasining buyuk san’atkorlari, xususan, ulug‘ sozanda va bastakorlari To‘xtasin Jalilov va Yunus Rajabiylar bilan yaqin hamkorlikda bo‘lib, milliy cholg‘ularning yangi navlarini, o‘zbek asboblarining zamonaviy ansambl (jo‘rnavozlik) va ko‘povozlik (orquestr) ijrochilik turlarini rivojlanishida katta hissa qo‘sghan arbob.

Usta Usmon va To‘xtasin Jalilov kabi millatparvar ijodkorlarning hayoti mashaqqatli damlar, jiddiy qarama-qarshiliklar, nohaq qatag‘onlar bilan to‘lib-toshgan. Lekin, hozir gap bu dahshatli zamonlarning changini ko‘tarishda emas, albatta. Balki, ana shu beqiyos ustozlar tutgan yo‘l-yo‘riqlari hamda ular erishgan ijodiy yutuqlardan unumli foydalamishda va eng muhimi zamonaviy sozshunoslik hamda cholg‘ushunoslik oldida turgan dolzarb masalalarni hal qilishda, ana shu ijobiy tajribadan unumli foydalanishda.

O.Matyoqubov ko‘targan masala ham bir qarashda go‘yo cholg‘uning nomi haqida borayotgandek tuyuladi. Lekin, masalaning ildizi chuqurroq. Har bir tarixiy voqe’likni o‘z nomi bilan aytishga da’vat etadi. Rubob-torni o‘z nomi bilan atasak yoki Qashqar rubobini asl nomi bilan aytib Toshkent rubobi desak, haqiqatni aytgan bo‘lamiz va to‘g‘ri yo‘l tutamiz.

Bugungi kunda milliy musiqa madamiyatimiz asl yo‘liga tushib muxlislar uchun ma’naviy ozuqa sifatida tan olinayotgan paytda tarix saboqlarini sog‘lom his-tuyg‘u va mustahkam aql-idrok bilan mutolaa etmog‘imiz zarur.

Ushbu uslubiy qo‘llanmamizda cholg‘u sozlari va cholg‘u ijrochiligi tarixini qayta yozish emas, tarixni tarix saboqlaridan unumli foydalanishni muhim deb qaradik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231).T: 1998.
- 2.Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. T: 2004.
- 3.Ибрахимов О.А. Фергано-Ташкентские макомы. – Т: 2006.
- 4.Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка. Т: 1972
- 5.Odilov A. Cholg‘u ijrochiligi – T:1995
- 6.Matyoqubov B. Doston navolari. – T:2009
- 7.Matyoqubov O. Maqomot. – T:2004.
- 8.Matyoqubov O. Og‘zaki an’anadagi professional muzika asoslariga kirish. – T: 1983.
- 9.Matyoqubov O, Boltayev R, Aminov H. O‘zbek notasi. – T:2007.
- 10.Миронов Н.Н. Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока. – Самарканд.1931.
- 11.Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. – Toshkent: 1998 .
- 12.Rajabiy Yu. Muzika merosimizga bir nazar. – T:.1978.
13. Rajabov I. Maqom asoslari. – T: 1992.
14. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. – T:1963
15. Rajabov I. Maqomlar. – T: 2006.
16. Садоков Р.Л. Музыкальная культура Древнего Хорезма.- М: 1970.
- 17.Успенский В.А. Научное наследие воспоминания современников композиторское творчество писма. – Т: 1980.
18. Fitrat.O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T: 1993.
19. Юнусов Р. Макомы и мугамы – Т:1991.
20. Yusupov M.Xorazm maqomlari (1-3 kitoblar) – T:1980, 1982, 1983.
21. 22. O‘zbek muzikasi tarixi.// Tuzuvchi Solomonova T.Gafurbekov T.B. – T:1981.
23. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-11 jildlar – T: Davlat ilmiy nashriyoti. T: 2001-2005.

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>O‘zbek xalq cholg‘ulari va cholg‘uchilik tarixi .....</b>	<b>10</b>
<b>Mllly cholg‘ular zamonaviylik kesimida. Yakkanavozlik .....</b>	<b>16</b>
<b>Jo‘rnavozlik.....</b>	<b>82</b>
<b>Ko‘p ovozli cholg‘u musiqasi .....</b>	<b>96</b>
<b>O‘zbek xalq cholg‘u asboblari orkestri va simfonik orkestr uchun yaratilgan asarlar .....</b>	<b>110</b>
<b>Xulosa .....</b>	<b>116</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar .....</b>	<b>118</b>

**BOTIR RAXIMOV, RUSTAM BOLTAYEV,  
DONIYORBEK OBIDOV**

# **CHOLG‘U IJROCHILIGI TARIXI**

(Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari uchun uslubiy qo‘llanma)

Muharrir  
Texnik muharrir  
Sahifalovchi-dizayner

**Bahrom Ro’zimuhammad  
Farhod Ibodullayev  
Akbar Bobojonov**

Bosmaxonaga berildi: 28.12.2018 й.  
Bosishga ruxsat qilindi: 28.12.2018 й.  
Bichimi 60x84 1/<sup>16</sup>  
Hajmi 7,5 bosma taboq.  
Adadi: 100  
Buyurtma: 59  
Bahosi kelishilgan narxda

**“Quvanchbek-Mashxura” MCHJ nashriyoti  
E-mail: quvanchbek\_mashxura@mail.ru  
Телефон: +(99862) 223-11-88**

**“Quvanchbek-Mashxura” MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Urganch shahri, Islom Karimov ko`chasi, 106-uy.**